

Jo'rayev Nurmuhhammad Nurmatovich
Y. G'ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya
instituti tayanch doktoranti
Nurmuhhammadjurayev874@gmail.com

BUXORO VOHASINING ARXEOLGIK TADQIQ ETILISHI TARIXIDAN

Annotatsiya. XIX asr o'rtalariga kelganda podsho Rossiyasining O'rta Osiyoga nisbatan harbiy harakatlari kuchaya boshlaydi. Ayni damda o'lkani o'rganish maqsadida ko'plab sharqshunos olimlar tashrif buyurib, ular yurtimiz haqida qimmatli ma'lumotlarni to'play boshlashadi. Ushbu maqolada Buxoro vohasida olib borilgan dastlabgi arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit sozlar: Kampir-devor, Varaxsha, Buxkomstaris, Ermitaj, Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi, sitadel, razvedka, qizil angob bilan qoplangan qadahlar, sarmatlarining dafn odatlari, ossuerialar, nauslar, nekropol.

ИЗ ИСТОРИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ИЗУЧЕНИЯ БУХАРСКОГО ОАЗИСА

Аннотация. К середине XIX века военные действия царской России против Средней Азии стали усиливаться. В настоящий момент в страну приезжают с целью ее изучения многие ученые-топографы, которые начинают собирать ценные сведения о нашей стране. В данной статье приводятся сведения о первых археологических исследованиях, проведенных в Бухарском оазисе, и их результатах.

Ключевые слова: Монеты Бухоркудатов, Кампир-девор, Варахша, Бухкомстарис, Эрмитаж, Зеравшанская археологическая экспедиция, цитадель, разведка, чаши покрытые красным ангобом, погребальные обычаи сарматов, оссурии, наусы, некрополь.

FROM THE HISTORY OF ARCHAEOLOGICAL RESEARCH OF THE BUKHARA REGION

Annotation. By the middle of the 19th century, Tsarist Russia's military actions against Central Asia began to intensify. At the moment, many topographical scientists are visiting the country to study it, and they are starting to collect valuable information about our country. In this article, information is provided about the first archaeological research conducted in the Bukhara oasis and their results.

Keywords: Coins of the Bukharkhudats, Kampir-devar, Varakhsha, Bukhkomstaris, Hermitage, Zarafshan Archaeological Expedition, citadel, reconnaissance, goblets covered with red slip, burial customs of the Sarmatians, ossuaries, nauses, necropolis.

O'zbekiston arxeologiyasi va tarixshunosligida jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichida bir xalq yoki millatning moddiy madaniyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, moddiy madaniyat na'munalari etnoslar hayotini aniq ifodalab, ijtimoiy hayotni qanday kechganligini asoslab bergan. Jahon miqyosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, turli mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik tabiiy muhit va moddiy madaniyatning ahvoli bilan belgilangan. Shu bois, shaharlarning moddiy madaniyati, ulardagi urbanizatsiya jarayonlari, ko'chmanchi xalq bilan madaniy aloqalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Hozirda dunyo miqyosida Buxoro arxeologiyasi, tarixi, madaniyati va diniy e'tiqodlariga qiziqish dunyo miqyosida yildan-yilga ortib bormoqda. Dunyoning qator mamlakatlari, jumladan AQSH, Rossiya, Fransiyaning ilmiy tadqiqot muassasalarida Buxoro vohasining tarixi va

madaniyatini o'rganish bo'yicha samarali izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, vohaning antik va o'rta asrlar davri tarixi bo'yicha qimmatli ma'lumotlar olindi. Markaziy Osiyodagi yirik tarixiy-madaniy o'lkalardan biri hisoblangan Buxoro vohasi ilk o'rta asr shaharlari tarixi va ularning xususiyatlari masalalarini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, bu masalalar ishlab chiqarish va inson faoliyati natijasi bilan bog'liq bo'ladi, buni o'rganishga BMT, YUNESKOning bir qator loyihalari bag'ishlanganligi mazkur masalaning ahamiyati va dolzarbligini aks ettiradi.

Buxoro vohasini arxeologik tadqiq etish XIX asrning o'rtalaridan boshlangan. Inqilobgacha bo'lgan davrda bu yerda O'rta Osiyoning boshqa hududlariga qaraganda ancha kam ish qilingan. Bu yer havaskor arxeologlar uchun ko'proq qulay bo'lgan, ular ko'pincha rasmiy topshiriqlarni bajara turib ma'lum yodgorliklar haqida ma'lumot olishgan. 1868-yildan keyin Buxoro amiri o'zini rus podshosining vassali deb tan olishga majbur bo'lgach, bu mamlakatda qidiruv ishlari uchun qulayroq bo'ldi. Bu davrda Buxoro xonligining rus va xorijiy sayohatchilar tomonidan tuzilgan ko'plab tavsiflari paydo bo'ldi. Ularning aksariyatida Buxoro yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar ko'pincha noto'g'ri va yuzaki, ba'zan buzib ko'rsatilgan[1]. Arxeologiya uchun bu kitoblar ahamiyatli emas edi.

XIX asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan barcha arxeologik tadqiqotlar umumiy natijada unchalik sezilarli bo'lmagan. Biroq, shu davrda numizmatika sohasida katta yutuqlarga erishildi. Uilson va Prinsipdan tashqari, Buxoroning tangalari haqida Fren ham yozgan. U ilk bor "buxor-xudotlar tangalari" deb atalgan guruhni ajratgan. P. I. Lerx[2] esa buxar-xudotlar tangalari bo'yicha katta va qimmatli ish olib borgan. Arab istilosidan keyingi davrga oid arab yozuvlari bilan yozilgan buxorolik tangalar haqida rus va xorijiy olimlarning ko'plab asarlarida so'z yuritilgan. Bu asarlar orasida V. Tizengauzenning Sharqiy xalifalik tangalari haqidagi asari alohida e'tiborga loyiqdir. Ermitajning numizmatika bo'limida "turon tangalari" (yoki Frenning ta'rifi bilan "afrosiyobiy turk xoqonlari tangalari") deb atalgan tanga guruhlari to'plangan edi[3]. Bu tangalarning aksariyat qismi arablar davridan oldingi Buxoro hukmdorlari tomonidan zarb etilganligini ko'rsatdi.

Buxoro vohasining arxeologiyasini o'rganish bo'yicha Oktabr sotsialistik inqilobiga qadar juda kam ishlar qilingan edi. Shu davrda amalga oshirilgan nisbatan muhim ishlardan faqat harbiy topograf N. F. Sitnyakovskiyning 1896-yilda Buxoroda vohaning ayrim hududlarini, asosan, g'arbiy va sharqiy tomonlarini topografik suratga olish ishlarini qayd etish mumkin. U 1914-yilda Poykand shahristonida kichik qazishmalar o'tkazgan. Shuningdek, L. A. Zimin ham ushbu hududlarni ko'zdan kechirgan[4]. N.F. Sitnyakovskiy na arxeolog, na tarixchi bo'lmasa-da, kartografik ishlar bilan birga, vohaning turli joylariga sochilib ketgan qadimiy yodgorliklarga qiziqib qoldi. U qadimda Buxoro hududlarini o'rab, ko'chmanchilarning kutilmagan hujumlaridan himoya qilgan mudofaa devori qoldiqlarini aniqlab, xaritaga tushirdi. Bu devor N.F. Sitnyakovskiy tomonidan to'g'ri aniqlanganidek, Kampir-devor yoki Kampirak nomi bilan mashhur. Oazisning tarixiy topografiyasi uchun Kampirak birinchi darajali ahamiyatga ega, chunki uning joylashuvi devor qurilgan davrdagi sug'oriladigan madaniy yerlarning aniq chegarasini belgilash imkonini beradi[5]. Bundan tashqari, N.F. Sitnyakovskiy bir necha qadimiy shahristonlar va qadimiy inshootlarning qoldiqlarini ko'zdan kechirdi hamda kichik qazishmalar o'tkazishga urindi. Lekin bu ishda to'liq tayyorgarligi yo'qligi sababli, uning bu urinishlari natija bermadi. N.F. Sitnyakovskiyning eng katta xizmatlaridan biri vohaning sug'orish tizimini batafsil va mukammal tasvirlab berganidir.

Buxoro vohasining hududini tarixiy va arxeologik jihatdan o'rganishda Muhammad Narshaxiyning yuqorida ta'kidlangan "Buxoro tarixi" asarini N.S. Lyukoshin tomonidan tarjima qililib, V.V. Bartold tahriri ostida nashr qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1913-1915-yillarda L.A.Zimin tomonidan olib borilgan ishlarda Sharqshunoslik bo'yicha ta'lim olganligi sababli bir oz yuqori darajada bajarilgan. L.A.Zimin hisobotlarining ijobiy tomonlaridan biri shundaki, u ularda asosan o'rta asrlarga oid yozma manbalardan yaxshilab tanlangan ma'lumotlarni kiritgan. Zimin bir necha rekognoskovka sayohatlari o'tkazdi, natijada u Qiziltepa stansiyasi va Xazora qishlog'i o'rtasidagi qadimiy devor qoldiqlarini qayta tasvirlab, suratga oldi. Bu haqda dastlabki ma'lumotlarni N.F.Sitnyakovskiy o'z vaqtida taqdim etgan edi. Zimin shuningdek, Poykenda

va Romitanda joylashgan bir necha qadimiy shaharlar va tepaliklarni ham o'rganib chiqdi. 1915-yildagi sayohat hisobotida Zimin Varaxsha yodgorligining joylashuvi haqida ma'lumot beradi: "Varaxsha tepaligi Buxoradan Xivaga boradigan yo'lda, arab geograflari ko'rsatganidek, to'rt farsak yoki bir kunlik yo'l masofasida joylashgan", shuningdek, bu tepada ko'pincha tangalar topiladigan keng qulagan qoldiqlar mavjudligini ta'kidlaydi[6]. 1914-yil bahor va yozda Zimin Poykend joyida Rus Sharq va O'rta Osiyo Tadqiqotlari Komitetining topshirig'i bilan qazish ishlari o'tkazdi. Arxeologik tadqiqot davomida shahar mavjud bo'lgan davrning kechki davriga tegishli bo'lgan shisha, keramika, metall va suyak buyumlari ko'p miqdorda topildi. Qazish ishlari shahristan hududida o'tkazildi bu yerda XI asr atrofida, ehtimol, aholi tomonidan tark etilgan bino topildi[7].

Styakovskiy va Zimin tomonidan olib borilgan ishlar bilan Buxoro amirligi davridagi Buxoro oazisidagi arxeologik tadqiqotlar deyarli tugallanadi. Amir hokimiyati ag'darilgandan (1920-yil) 1934-yilgacha Buxoro arxitektura yodgorliklarini o'rganish va himoya qilish bo'yicha Buxoro eski yodgorliklar himoyasi komissiyasi (Buxkomstaris) tomonidan ma'lum ishlar amalga oshirildi.

Sovet arxeologlarining Buxoro oazisidagi birinchi muhim ishi 1934-yilda A. Yu. Yakubovskiy tashabbusi va rahbarligida Ermitaj va Uzkomstaris tomonidan o'tkazilgan marshrutli tadqiqot ekspeditsiyasi bo'ldi[8]. Ekspeditsiya Buxoro oazisidan Samarqandgacha bo'lgan katta karvon yo'li bo'ylab kuzatuvni amalga oshirishni maqsad qilgan edi. Biroq, faqat bu yo'lining bir qismi, Dabusiyaga qadar bo'lgan qismi o'tkazildi, bu yerda Buxoro vohasining shimoli-sharqiy qirralarini, qadimgi Kampir-devorning qoldiqlari bilan batafsil o'rganildi.

Urush boshlanishidan oldin Buxoro vohasida olib borilgan arxeologik ishlar ro'yxati Poykend shahristonidagi tadqiqotlar bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotlar 1939-yilda A.Yu. Yakubovskiy rahbarligida Ermitaj tomonidan Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi doirasida olib borilgan. Ekspeditsiya shahristonning topografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan. Kichik qazish ishlari esa sitadel va uning shimoli-sharqiy qismida amalga oshirilgan. 1940-yilda V.N. Kesaev tomonidan Poykendni o'rganish ishlari kichik miqyosda davom ettirilgan. A.Yu. Yakubovskiy va V. N.Kesaev tomonidan Poykendda olib borilgan tadqiqotlar razvedka xarakteriga ega bo'lgan.

1947-yilda, V. A.Nielsen va L.I.Albaum ishtirokida, Varaxsha shahristonida razvedka tadqiqotlari o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shahristonning holati va urushdan oldin qazib olingan ob'ektlar bilan tanishish edi. Varaxsha shahristonini o'rganish bo'yicha ishlar kengroq miqyosda 1949-yildan qayta tiklanib, 1954-yilgacha V.A.Shishkin uzluksiz davom etdi[9].

1952–1953 yillarda Buxoro vohasi arxeologiyasida V.A.Shishkin rahbarligidagi qazishmalar Quyi-Mozor stansiyasi yaqinidagi sharqiy vohada joylashgan qabriston tepaliklarida olib borildi. Bu yerdagi dafn izlari birinchi marta 1934-yilda Kampir-evor qoldiqlarini o'rganish jarayonida aniqlangan edi. 1952-yilgi razvedka davomida qizil angob bilan qoplangan qadahlar, kosalar va boshqa buyumlar topildi. Ushbu buyumlar to'plami eramizdan avvalgi oxirgi asr yoki eramizning dastlabki asrlariga oid bo'lishi mumkin. Ular Sharqiy Yevropadagi sarmatlarning dafn odatlariga o'xshashligi aniqlandi. Bu esa qadimgi Buxoro aholisi va Janubiy Rossiya dashtlari o'rtasidagi madaniy, ehtimol etnik aloqalarni tasdiqlaydi[10].

1950-yillarda Buxoro vohasida birinchi marta loydan yasalgan ossuerialar topilgan. Bungacha bu hududda bu turdagi dafn usuli noma'lum edi. 1954-yilda Eski Paykand shahristoni yaqinida ossuerialar bilan birgalikda kichik nekropol ochildi. Bu yerda G.V. Shishkina tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida deyarli kvadrat shakldagi xom g'ishtdan qurilgan bino topildi. Binoning bir xonasida kuchli shikastlangan ossuerialar va inson suyaklari aniqlandi. Yon atrofda ham xom g'ishtdan qurilgan platformalar qazib ochildi, ularning yonida ossuerialarning bo'laklari topildi. Ehtimol, ushbu platformalar va kvadrat bino ossuerialarni joylashtirish uchun mo'ljallangan "nauslar" qoldiqlari hisoblangan. Umuman olganda, nekropol VI–VIII asrlarga oid deb taxmin qilinmoqda.

XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda Buxoro vohasini arxeologik o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, bu hududning kengligi va turli davrlarga mansub ko'plab arxeologik

yodgorliklari mavjudligini tufayli yetarli darajada to'liq amalga oshmadi. Shunga qaramay, sovet arxeologlari tomonidan bu davr mobaynida amalga oshirilgan muhim topilmalar va kuzatuvlar voqea tarixining ayrim muhim bosqichlarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В. А. Ш и ш к и н . Археологические работы 1947 г. на городище Варахша.— “ИАН УзССР”, 1948.
2. Р. I. Lerx. “Монеты бухар-худатов.” — Sankt-Peterburg, 1875–1909.
3. V. Tizengauzen. “Монеты Восточного халифата” Sankt-Peterburg, 1873
4. Л. А, З и м и н. Развалины старого Пайкенда в их современном состоянии 1914, стр. 74—80.
5. В. А. Ш и ш к и н . Археологические работы 1947 г. на городище Варахша.— “ИАН УзССР”, 1948. № 5. стр. 62—70.
6. Л.А. Зимин. Отчет о двух поездках по Бухаре с археологической целью —1917. sahifa 131.
7. Л. А. Зимин. Отчет о весенних раскопках в развалинах Старого Пайкенда, вып. 2, 1915, стр. 63—88.
8. А. Ю. Я к у б о в с к и й . Археологическая экспедиция в Зарафшанскую долину в 1934 г. (Из дневника начальника экспедиции).— 1940. стр. 113—164.
9. В. А. Ш и ш к и н . Археологические работы 1947 г. на городище Варахша.— “ИАН УзССР”, 1948. № 5. стр. 62—70
10. О. В. О б с л ь ч е н к о . Кую-Мазарский могильник.— “Труды ИИА АН УзССР”, вып. VIII. 1956, стр. 205